



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

UNDOSHLARDA JARANGLILIK VA JARANGSIZLIK

Raximova Iroda Baxodirovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada til tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan a'zolarning deyarli barchasi, avvalo, fiziologik (biologik) vazifani bajarishi; faqat ovoz hosil qilishga xizmat qiladigan a'zo – tovush psychalari – tovush hosil qilish uchun xoslanganligi to'g'risida hamda boshqa tillarda bo'lgani kabi, o'zbek tilidagi umumiy qonuniyatlardan biri, tovushlar tizimida eng oz oz miqdorni ovozdor tovushlar tashkil qilishi, miqdorining ozligi jihatidan ikkinchi o'rinda ovoz tovushlari turadi; tovushlarning ko'pchiligi shovqin tovushlarga va ovozli tovushlarga to'g'ri kelishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: fonetika, fonologiya, tovush, jarangli undoshlar, tovush psychalari, leksema, Jarangli tovushlar, konsonantizm, oppozitsiya, korrelyatsiya

Звонкость и глухота согласных

Рахимова Ирода Баходировна

Андижанский государственный институт иностранных языков

Аннотация:

В данной статье практически все органы, участвующие в образовании звуков языка, выполняют, прежде всего, физиологическую (биологическую) задачу; что орган, служащий только для воспроизведения звука, - голосовые связки - специализирован для производства звука, и, как и в других языках, в узбекском языке одним из общих законов является то, что звонкие звуки составляют наименьшее количество в системе звуков., на втором месте по малости находятся звуки голоса; Сообщается, что большая часть звуков соответствует шумовым звукам и вокальным звукам.

Ключевые слова: фонетика, фонология, звук, звонкие согласные, звуковые аккорды, лексема, звонкие звуки, консонантизм, оппозиция, корреляция.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Jaranglilik – fonetika va fonologiyada nutq tovushlarini (odatda undosh tovushlarni) ta’riflash va tasniflash uchun ishlataladigan atama. Nutq tovushlari jarangli yoki jarangsiz deb ta’riflanishi mumkin.

Bu atama ikkita alohida tushunchani ham anglatishi mumkin. Jarangli deganda tovush paychalari tebranishlari bilan bog‘liq artikulyatsion jarayon tushiniladi, u fonetikada fonemalarni, nutq tovushlarini, tasvirlash uchun ishlataladi. Bu, shuningdek, tovush paychalarining tebranishi bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin aslida artikulyatsiya darajasida jaranglamasligi mumkin bo‘lgan nutq tovushlarining tasnifiga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida [z] tovushi talaffuz qilinganda agar barmoqlar bo‘g‘izga qo‘yilsa, tebranish seziladi. Til tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan a’zolarning deyarli barchasi, avvalo, fiziologik (biologik) vazifani bajaradi; faqat ovoz hosil qilishga xizmat qiladigan a’zo – tovush paychalari – tovush hosil qilish uchun xoslangan.

Tovush paychalarni o‘pkadan chiqariladigan havo oqimi zarb bilan ritmik tebratishi natijasida ovoz hosil bo‘ladi. Har bir til tovushining talaffuzida tovush hosil qilishda xizmat qiladigan a’zolarning barchasi qatnashadi.

Ovoz paychalari havo oqimiga to‘sinq bo‘lib, ritmik tebranadi, shunga ko‘ra bu to‘sinq ovoz hosil qilish to‘sig‘i deyiladi.

“Jaranglilik” ruscha “zvonkost” so‘zining kalkasi bo‘lib, ushbu holatni ayrim o‘zbek tilshunoslari ma’qullamaydi. Ular o‘zbek tilida “jaranglilik” hodisasi unli va sonor tovushlarga ham xosligini qayd etgan holda ushbu hodisani aniq nomlamaydi degan xulosaga kelishadi va uning o‘rniga “ovoz”, “ovozli” “ovozdor” tovushlar terminini tavsiya qilishadi.

Boshqa tillarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilidagi umumiyligi qonuniyatlardan biri shuki, tovushlar tizimida eng oz miqdorni ovozdor tovushlar tashkil qiladi, miqdorining ozligi jihatidan ikkinchi o‘rinda ovoz tovushlari turadi; tovushlarning ko‘pchiligi shovqin tovushlarga va ovozli tovushlarga to‘g‘ri keladi. Undosh

tovushlarning hosil bo‘lishida havo oqimi tovush paychalarini titratish-titratmasligidan qat’i nazar og‘iz bo‘shlig‘ida qarshilikka uchraydi. Agar havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida qarshilikka uchrasha, jarangsiz undoshlar (p, t, s, f) hosil bo‘ladi.

Bu tur tovushlarning aytilishida tovush (un) paychalari qatnashmaydi, betaraf turadi. O‘pkadan zarb bilan chiqariladigan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida shovqin hosil qiluvchi to‘singga uchraydi, shu to‘singga bog‘liq holda og‘iz bo‘shlig‘ida til turlicha holatda bo‘ladi va turli tovushlarning shakllanishiga xizmat qiladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hozirgi adabiy o‘zbek tilida J. tovushlar o‘nta: p, t, k, q, tsh,(ch), x, f ,s, sh, h. Bulardan p, f tovushlarida tovush oralig‘i lablarda voqe bo‘ladi, shunga ko‘ra bular lab tovushi deyiladi. Qolgan sakkiz tovushda tovush oralig‘i tilning turli qismi bilan tanglay orasida voqe bo‘ladi, shunga ko‘ra bu tovushlar til tovushlari deyiladi.

Ushbu tovushlardan h tovushining shakllanishida bo‘g‘iz usti bo‘shlig‘i ham qatnashadi, shunga ko‘ra bu tovush bo‘g‘iz tovushi (aniqrog‘i – til-bo‘g‘iz tovushi) deyiladi; qolgan yetti tovush sof til tovushlaridir. p, f tovushlari aytilayotganda til odatdag‘i holatida bo‘ladi, og‘iz rezonatoriga ko‘ra deyarli farq qilmaydi; p tovushida lablar odatdag‘i holatida jipslashadi, havo oqimi shu jipslashuvni ochib tashqariga chiqadi, shunga ko‘ra bu tovush portlovchi tovush deyiladi; f tovushida esa lablar biroz ochiladi va cho‘chchayadi, havo oqimi shu oraliqdan sirg‘alib tashqariga chiqadi; shunga ko‘ra bu tovush sirg‘aluvchi tovush deyiladi.

O‘zbek tilshunos olimi Sh. Rahmatullayev fikriga ko‘ra bu ikki lab tovushi o‘zaro jiddiy farq qiladi, shunga ko‘ra tizim hosil etmaydi. Asli f tovushi – o‘zlashtirma tovush; qadimgi turkiy tilda bunday tovush bo‘lmagan; o‘zbek tiliga bu tovush avvallari arab, fors tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalar tarkibida, keyinchalik rus tilidan o‘zlashtirilgan leksemalar tarkibida kirib kelgan. Ushbu olim tomonidan J. tovushlarni shovqin tovushlarga almashtirish taklifi berilgan. J. tovush termini rus tilshunosligidan kalka qilib olinib hodisani aniq nomlamaydi, uni o‘rniga shovqin tovush atamasini tafsiya qiladi.

Tilshunoslikda jarangsizlik tovushlarning halqum tebranishisiz talaffuz qilinishi xususiyatidir. Fonologik jihatdan bu fonatsiyaning bir turi bo‘lib, u halqumning boshqa holatlaridan farq qiladi, lekin ba’zi olimlar fonatsiya so‘zi ovoz berishni anglatadi va jarangsiz fonatsiyaning yo‘qligi deb e’tiroz bildiradilar.

An’anaviy yondashuvda fonatsiya tovush psychalarining kuchlanishi va holatining funksiyasi sifatida qaraladi. Ba’zida murakkabroq jarayonlar tasvirlangan, ammo yaqin vaqtgacha “halqumning holati” va “fonatsiya” tushunchalari amalda sinonimlar sifatida ko‘rib chiqilgan.

Un psychalarining to‘liq bo‘shashgan holatida va chokmichsimon tog‘aylar havo o‘tishiga to‘sinqlik qilmasa un/tovush psychalarining tebranishi sodir bo‘lmaydi. Bunday fonatsiya jarangsiz tovushlarning paydo bo‘lishiga olib keladi (ba’zi adabiyotlarda ular shovqinli deb ham ataladi).



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Prof. A. Abduaizizov jarangsizlik hodisasini konsonantizm – undosh tovush tizimini tadqiq qilish bilan bog‘laydi. Undoshlarning jarangli-jarangsizlik belgisi fonologik muhim belgi sanaladi. Ushbu belgi asosida undoshlar o‘zaro privativ zidlanishga kirishadi.

Jarangli undoshlar bunday belgiga ega, markerlangan, jarangsiz undoshlar esa ega emas, ya’ni markerlanmagandir, ba’zi undoshlar bu belgiga ko‘ra o‘z ziddiga ega. Shuning uchun korrelyativ qatorlarni hosil qiladi: **p-b, f-v, t-d, s-z, ch-j, k-g, q-g‘** v.b. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida **pir-bir; sor-zor; tor-dor; chala-jala; kul-gul; qor-**

g‘or singari leksemalar so‘z boshi pozitsiyasidagi undoshlarning jarangli-jarangsizlik belgisiga ko‘ra o‘zaro almashinuvি natijasida bir-iridan mazmuniy farqlangan.

Jarangli undoshlarning so‘z boshida ishlatilishi turkiy tillarning barchasi uchun bir xil emas. Ayrim turkiy tillarda jaranglilar so‘z boshida qo‘llanilmaydi.

Umumturkiy tillarda so‘z boshida portlovchi **p** va **b**, **t** va **d**, **q** va **g‘** larni qarama-qarshi qo‘yish minimal hisoblanadi.

So‘z oxirida jarangli undoshlarning jarangsizlashuvi natijasida **g – k, d – t, b – p** kabi oppozitsiyalar a’zolari o‘rtasidagi farq yo‘qoladi. Bu hodisa neytralizasiyaga misol bo‘la oladi.

Bu holatda oppozisiyaning har ikki a’zosi ham bir xil farqlanish belgnlariga (portlovchi + jarangsiz) ega bo‘lib qoladi. O‘zbek tilida **s – z** oppozisiyasi so‘z boshida turg‘un: **sot – zot, so‘r – zo‘r , sil – zil** (og‘ir ma’nosida) va h. k. Bu oppozitsiya so‘z o‘rtasida va oxirida neytralizasiya qilinadi: **kuchsiz (kussiz), yuzsiz (yussiz), sakkizta (sakkista), yulduz (yuldus), ildiz (ildis).**

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1992
2. Басқаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А., Умумий тилшунослик. –Т., Ўқитувчи. 1979.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Talqin, 2005.
4. Миртохиров М. Ўзбек тили фонетикаси. –T.: Fan, 2013.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik) T.: Universitet, 2006.
6. Сайфуллаева Р. Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Қурбонова М.М., Юнусова З.К., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т., 2009.
7. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. –Т., 2002.